

O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MILLIY MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI

Ona yurtning - oltin beshiging

# TONG yulduzi

№ 1 (66438)  
2004 yil 5 yanvar  
dushanba  
Gazeta 1929 yil  
1 avgustdan chiqq  
boshlagan

O'zbekiston bolalari  
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.

## YANGI YIL - YAXSHI YIL

Hamma joyda bo'lgani kabi ukam tarbiyalanayotgan Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan 504-bolalar bog'chasida ham yangi yil shodiyonalari tantanali nishonlandi. Ukamning guruhi tayyorlagan dasturni miriqib tomosha qilarkanman, tarbiyachilariga tasanno degim keldi. Chunki bolalar xuddi katta sahnada rol ijro etayotganday tartib-intizom bilan qildilar. Ular she'rlarni badiiy va ifodali raqslarni chiroyli ijro etdilar. Ukam musiqa maktabida o'rgangan kuylaridan birini skripkasida chalib berdi. Uning tarbiyachilari Malika opa Halilova hamda Mahfuza opa Sa'dullayevalar Qorbobo va Qorqiz bo'lib, bolajonlar kutgan sirli sovg'alarni ulashdilar.

**Behzod IKROMOV,**

*Ijtimoiy yo'nalishdagi Respublika maxsus gimnaziyasining 5-sinf o'quvchisi.*



## JAMG'ARMADA XAYRIYA TADBIRI

Yangi yilda bolajonlarga sovg'a-salomlar ulashish yaxshi bir an'anaga aylanib qolgan. Bunday sovg'alar ularga bir olam quvonch baxsh etadi. Ayniqsa, Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan ko'ngli o'ksik bolajonlarga. Bayram arafasida bunday bolajonlarga mehr va e'tiborning yanada ortishi ham shundan...

«Obod mahalla yili»miz poyoniga yetayotgan kunlarda «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasida «Ameri Kers» «Fridensdorf Interneshnl» xalqaro xayriya tashkiloti tomonidan keltirilgan muruvvat yordamining taqdimot marosimi bo'lib o'tdi. Mazkur jamg'arma yil davomida juda ko'plab xayriya tashkilotlari bilan hamkorlikda talaygina xayriya ishlarini amalga oshirdi. Bularning bari sog'lom ona, demakki, sog'lom avlod manfaatlarini ko'zlab qilingan ishlardir. Jumladan, o'tgan yilning dekabr oyida AQShning «Siti Xoup Interneshnl» xalqaro tashkiloti tomonidan 150.564,96 AQSH doll. miqdorida maxsus oziq-ovqatlardan tashkil topgan muruvvat yuki Jamg'armaga keltirildi va respublikamizning tibbiy, nogironlik muassasalariga, «Mehribonlik», «Muruvvat», «Sahovat» uylariga va boshqa muassasalarga tarqatildi.

Jamg'armaning hamkorlikdagi tashkilotlaridan yana biri Germaniyaning «Fridensdorf Interneshnl» xalqaro tashkilotidir. U 1967 yilda tashkil topgan bo'lib, o'z faoliyatini yigirma beshdan ortiq mamlakatlarda amalga oshirmoqda. Tashkilotning asosiy vazifasi - Yevropaning ko'p sonli klinikalarida tibbiy yordamga va sog'lomlashtirishga muhtoj bo'lgan bemor bolalariga yordam ko'rsatishdir. Hozirga qadar ushbu tashkilot orqali 28 nafar o'zbekistonlik bemor bolalar Germaniyada davolanib qaytdilar va davolanyaptilar. Ushbu tashkilot nafaqat bemor bolalarni davolashga ko'mak ko'rsatish, balki muruvvat yordamlari berish bilan ham shug'ullanadi.

Jamg'arma hamkorlaridan yana biri 1982 yilda tashkil topgan AQShning «Ameri Kers» xalqaro xayriya tashkilotidir. U dunyodagi eng yirik muruvvat tashkiloti bo'lib, dori-darmonlar, tibbiy mahsulotlar va boshqa tibbiy jihozlarni joylarga insonparvarlik yordami sifatida yetkazish bilan shug'ullanadi. Mazkur tashkilot bilan aloqalar yo'lga qo'yilgandan buyon O'zbekistonga 35 million AQSH doll. miqdorida muruvvat yuklari keltirildi.

Marosimda Jamqarma orqali AQShning «Ameri Kers» xalqaro xayriya tashkiloti tomonidan noyabr oyida keltirilgan 500.000 AQSH doll. miqdoridagi dori-darmonlar va tibbiyot mahsulotlaridan iborat muruvvat yordami va Germaniyaning «Fridensdorf Interneshnl» xalqaro xayriya tashkiloti tomonidan 3.989,17 Yevro miqdoridagi bolalar yuqumli kasalliklari kasalxonalar uchun mo'ljallangan multivitaminlardan tashkil topgan muruvvat yuklarini respublikamizning tibbiy muassasalariga va Jamg'armaning mintaqaviy filiallariga tarqatish bo'yicha taqdimoti bo'lib o'tdi.

Bir so'z bilan aytganda, «Mehr va muruvvat yili» deb nomlangan 2004 yilimizda amalga oshirilajak ezgu ishlar qizg'in boshlab yuborildi.

## TA'TILINGIZ QANDAY O'TYAPTI?

-29-30 dekabr kunlari «Turkiston» saroyida Nodira Qurbonova boshchiligidagi «Tomosha» studiyasi qatnashchilari ishtirokida «Prezident archasi» atrofidagi qiziqarli tomoshalarda bo'ldim.

-T.Egamberdiyev nomidagi Toshkent Davlat sirkida 26 dekabrda boshlangan «Aloviddin va do'stlarining yangi yil sarguzashtlari» nomli bayram tomoshalarida 11 yanvargacha bolalarning mehmoni bo'laman.

-O'zbek Davlat Milliy teatrining ko'rkam binosida ham «Obid - A» teatri ishtirokida «Qiziqchilar archasi» atrofida bayram tomoshalari namoyish etilyapti. Sevimli so'z ustalarimizdan Obid Asomov, To'xtamurod Azizov, Boltaboy Toshmatov, Botir Muhammadjonov, Shukrullo Isroilov va Muzaffar Mirzabekovlar ishtirokidagi bu tomoshalarda men ham albatta qatnashaman, bolajonlarga bir olam quvonch va turli-tuman sovg'alarimni ulashaman. Tomoshalar 11 yanvargacha davom etadi.



-Qorbobojon,  
yangi yil bayramida  
qayerlarda bo'ldingiz,  
nimalarni ko'rdingiz?  
-Qishki ta'til kunlarida  
yana qayerlarda  
bo'lasiz?





## MAKTABIMIZDA QO'SHALOQ TADBIR

Bizning Shayxontohur tumanida joylashgan 254-maktabda tez-tez qiziqarli tadbirlar o'tkazilib turiladi. Kuni kecha ilm maskanimizdagi qo'shaloq tadbir: o'qituvchilar seminariga hamda Konstitutsiyamizning 11 yilligiga bag'ishlandi. G'oyat maroqli o'tgan tadbirimizda men davrada boshlovchilik qildim. Dilingdagi fikrlarni senga ko'z tikib turgan ustozlaringga, maktabdoshlaringga yetkazish g'oyat mas'uliyatli vazifa ekanligini shunda angladim. Avvalo boshlovchi o'z so'zini o'zi chuqur anglashi ham bir san'at ekan. Ushbu tantanalarda bizning sinfimiz alohida o'mak ko'rsatib, shahar miqyosidagi tanlovga ishtirok etish sharafiga muyassar bo'lishdi. Qo'sh tadbirga barchamizni munosib tayyorlagan sinf rahbarimiz Matluba Murodovadan g'oyat xursand bo'ldik. Uning ko'zlaridagi mehr barchamizga munosib baho edi. Shunday ustozimiz borligidan doimo faxrlanamiz.

Toshkent shahridagi 254-maktab o'quvchilari nomidan  
Ziyoda MIRZAJONOVA.

## «SINF» VA «KLASS»

O'shanda 5-sinfda o'qirdim. Qishloqda yashaganligimiz bois, uy yumushlari juda bisyor bo'lardi. Gohida maktabdan ham bir-ikki kunga qolib, uy yumushlariga qarashishga majbur bo'lardik.

Shunday kunlarning birida onam menga, bugun maktabga bormay qo'ya qol, ishlar juda ko'p, dedilar. Uyda ish qilgandan ko'ra, maktabda yallo qilib o'ynab kelishni afzal bilib, turli bahonalar qidira boshladim.

-Bormasan, darslarim nima bo'ladi?

-Sinf doshing Umiddan so'rab, bilib olasan...

Qarasam, ukam maktabga ketyapti.

-Nega Jonibek boradi-yu men qolarkanman,-desam, onam unga ham javob topib berdilar:

-Chunki Jonibek klassda o'qiydi, sen esa sinfda,- dedilar.

-Sinf bilan klassning farqi yo'q-ku,-desam, oyim yana bilag'onlik bilan.

-Farqi bor, sinfda ko'p muallim o'qitadi, klassda esa bitta. Shuning uchun ukang borishi kerak,-deb gapni qisqa qildilar.

Onamning gaplarini eshitib turgan ukam xaxolab kulib yubordi. Shu kuni maktabdan qolib, rosa ish qilgandim...

Oradan shuncha yil o'tsa ham, onam bilan ukam o'sha voqeani eslab, kulib yurishadi. Nima deyishni bilmay, men ham qo'shilishib kulaman va soddaligimdan uyalib ketaman.

Jo'rabek ERGASHEV,

Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanidagi  
11 - maktabning 11 - sinf o'quvchisi.


## VATAN ICHRA VATANIM!

Yurtimizning ko'p asrlilik tarixi, boy madaniyati, ko'hna qadriyatlari mahalla taqdiri bilan bevosita bog'liqligi sabab, mahallaga vatan ichra vatan, deya qaraladi. O'tgan yilimizning «Obod mahalla yili» deb nomlanishi ham bejiz emas edi, albatta. Aslida, mahallalarga e'tibor mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq boshlangan, 1992 yilda yurtboshimiz tashabbusi bilan «Mahalla» jamg'armasi tashkil qilindi. Zero, mahallaning jamiyat hayotida tutgan o'rni beqiyosdir. Ularda ertangi kun avlodlari tarbiya topadilar. Yoshlarimizning qanday insonlar bo'lib ulg'ayishlari esa mahalladagi muhitga bog'liq. Mahallalarda turli sport to'garaklari, maydonchalarining ochilishi, mahalla pedagoglarining faoliyat yuritishlari zahirida ham birgina maqsad - farzandlar salomatligi, barkamolligi yotadi. Qadimda hatto shohlar ham oddiy xalq kiyimida mahallalarni aylanib, ertangi kun rejalarini tuzganlari bejiz emas. Bundan ko'rinish turibdiki, mahalla urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar ostonasi hamdir.

Mana «Obod mahalla yili» bilan ham xayrlashdik. Lekin undagi yaxshi an'analar, ibratli ishlar kirib kelayotgan «Mehr va muruvvat yili»mizda ham davom etaverishiga ishonaman.

Malohat TO'XTAYEVA,

Poytaxtdagi 116 - maktabning 9 - «B» sinf o'quvchisi.



## DO'STLIK UCHUN «5» BAHO

Sinfimiz o'quvchilarining ahil, inoqligiga hammaning havasi keladi. Mana bunga yana bir misol: yaqinda ingliz tili ustozimiz O'lmas opa bizga test yozdirdilar. Oradan ikki kun o'tgach, yozgan testimizning javoblarini o'qib eshittira boshladilar. Navbat Akmal bilan Hamidullaga kelganda to'xtab qoldilar va ularni turg'azib, jahl bilan kimkimdan ko'chirganini so'radilar. Shu payt ular baravariga, men ko'chirgandim, ustoz, deya javob berishdi. Kutilmagan javobdan ta'sirlanib ketgan o'qituvchimiz, barakalla bolalar, deb yubordilar. Bilimingiz uchun «2» qo'ymoqchi edim. Fikrimdan qaytdim. Endi do'stlikka sadoqatingiz uchun «5» qo'yaman, deb yubordilar. Biz ham quvonchdan qarsak chalib yubordik.

Maftuna O'AJONOVA,

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi  
21 - maktab o'quvchisi.

## Men «Saryuzi» nomli mahallada Qishlog'ingizni tarixini bilasizmi?

yashayman. Mahallamiz juda obodligi va ko'kalamzorlashtirilganligi bilan boshqa mahallalardan ajralib turadi. Unda 2 ta maktab, masjid, do'konlar, shifoxonalar joylashgan. Uning nomi ham

tanlovi o'tkazildi. Unda men ham o'z ijod namunalarim bilan ishtirok etib, faxrli birinchi o'rinni egalladim.

## JUG'ROFIYANI TANLADIM

ajoyib bo'lgani uchun ma'nosini oyimdan so'rab, bilib oganman. «Saryuzi» so'zi bosh va yuz ma'nolarini anglatarkan. Viloyatimiz xaritasini chizib ustozimga ko'rsatgandim, ular: «Sendan yaxshigina rassom yoki jug'rofiya o'qituvchisi chiqadi», dedilar.

Bizning 15-o'рта maktabimizga Boymurod Sodiqov rahbarlik qiladi. O'quv dargohimizda 18 nafar o'qituvchi 350 ta o'quvchiga saboq beradilar. Bizda tanlov va musobaqalar muntazam uyushtiriladi. 2003 yil yakunida «Obod mahalla yili»ga bag'ishlab, rasmlar



Dilnoza SATTOROVA,  
Jizzax viloyati,  
Baxmal tumanidagi  
15-o'рта maktab o'quvchisi.

Suv tiriklik manbaidir. Ammo undan tejab-tergab foydalanmaslik salbiy oqibatlariga olib keladi. Aniq tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yer yuzida hozirgi vaqtda inson foydalanishi mumkin bo'lgan



## SUVNI EHTIYAT QILING!

chuchuk suvlar miqdori umumiy suv hajmining 0,3 foizini tashkil qilar ekan. Dunyo aholisi tez suratlarda o'sib borayotgan hozirgi vaqtda 800 mln.dan ortiq kishi suv yetishmasligi sharoitida yashaydi va 60 foizdan ortiq aholi sifatli ichimlik suvi bilan yetarlicha ta'minlanmagan.

Bas, shunday ekan, biz O'zbekistonda jannatmakon, suvga boy yurtda yashar ekanmiz, undan oqilona foydalanib, kelajak avlodga ham yetkazib berishimiz ham farz, ham qarzdur.

Rustam ISROILOV,

Moliya Instituti Bank ishi fakultetining 1-kurs talabasi.



## BESH YOSHLI «SEVINCH»NI QUTLAYMIZ!

Jajji qizaloqlarni hech gapga solib ko'rganmisiz? Katta bo'lsang kim bo'lasan, deb so'rasangiz, aksariyati qo'shiqchi yoki kinoaktyor bo'lish niyatida ekanligini aytishadi. Toshkent shahar Qo'shimcha Ta'lim majmuasida bundan besh yil avval tashkil qilingan «Sevinch» vokal guruhiga ham ana shunday qizaloqlar yig'ilishgan. Saodat opa Muzaffarova rahbarlik, Xurshida opa Hasanovlar bastakorlik qilayotgan guruhga a'zo bo'lishni xohlovchilar soni kundan-kunga ortib boryapti. Sababi, bolajonlar guruh a'zolari ijrosidagi «Bolalik», «Turnalar», «Sumalak», «Toshkentim» kabi qo'shiqlarni tinglab, televideniye orqali namoyish qilinayotgan kliplarini ko'rib, ularga juda havas qilishyapti-da.

Tashkil qilinganiga ko'p vaqt bo'lmasa-da, ellikdan ziyod konsert dasturlarida ishtirok etishga ulgurgan,

repertuaridan ellikdan ziyod qo'shiqlar o'ringan «Sevinch» o'zining besh yilligini nishonlash uchun «Zarafshon» konsert zalida xayriya konserti berdi.

Bayramga 24 - Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari buyurishdi. Dasturni «Katta tanaffus» ko'rsatuvining boshlovchisi Dilnoza Nishonboyeva va «Yoshlar» radiokanalining boshlovchisi Nasriddin Asriddinovlar «Sevinch» guruhi haqidagi ertak bilan boshlab berishdi. «To'yga to'yona bilan» deganlaridek, Xalq Ta'limi Bosh Boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Abdumannop Sobirov



tashrif ko'rsatuvining boshlovchisi Dilnoza Nishonboyeva va «Yoshlar» radiokanalining boshlovchisi Nasriddin Asriddinovlar «Sevinch» guruhi haqidagi ertak bilan boshlab berishdi. «To'yga to'yona bilan» deganlaridek, Xalq Ta'limi Bosh Boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Abdumannop Sobirov

«Sevinch»ning bolalar estrada guruhlari orasida bo'lib o'tgan ko'rik-tanlovda Oliy o'ringa sazovor bo'lganini e'lon qilib, «Faxriy yorliq» bilan taqdirladi. Tantanaga mehmon bo'lib kelgan «A'lo» guruhining sho'x qizlaridan biri Karina, jajji Malikaxon bilan jonli tarzda «Mayda» qo'shig'ini kuylab berishdi. Manzura, Aziz Rajabiy, Firdavs, Zilola, Elyor singari xushovoz san'atkorlar «Sevinch»ni besh yoshi bilan tabrikladilar. Guruhning kenjatoylaridan biri 3 yoshli Ziyoda Ibrohimova belanchakda o'tirib, «Shirin, shirin» qo'shig'ini kuylaganda, yig'ilganlar olqishlarga ko'mib tashlashdi. Guruhning ilk qaldirg'ochlari ustozlarini tabriklab, ularga guldastalar, esdalik sovg'alari taqdim etishganda, Saodat va Xurshida opalarning ko'zlari sevinch yoshlari bilan to'ldi. «Mening sevinchim» qo'shig'i konsertga yakun yasadi. So'ngra sahnaga beshta kattakon qaymoqli tort olib chiqildi. Uning ustidagi shamlarni hammalari baravariga puflab o'chirishdi va Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini mehmon qilishdi.

Fursatdan foydalanib, guruh a'zolarini suhbatga tortdik. Nigora NARZULLAYEVA, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 99 -o'rta maktabning 6-sinf o'quvchisi: «Sevinch»ga kelgan kunimdan boshlab kuy-qo'shiq mening hayotim bo'lib qoldi. Shu besh yil mobaynida ustozlarimdan juda ko'p narsa o'rgandim va buning uchun ulardan minnatdorman.

### Qutlov

Opa-singil Nigora (12 yosh) va Shirin (6 yosh) NOSIROVALAR:



-Bizning uyimiz ancha olisda. Shunday bo'lsa-da, mashg'ulotlarga o'z vaqtida yetib kelishga harakat qilamiz. Guruhimiz a'zolari bilan bir oila a'zolaridek bo'lib ketganmiz. Ustozlarimiz esa xuddi onamizdek mehribonlar.

-Bolalarimizning konsertdan qanchalik zavqlanganlarini, miriqib raqsga tushayotganlarini ko'rib, boshimiz ko'kka yetdi,-deya suhbatimizga qo'shildi Mehribonlik uyi mudirasi **Dono opa HAFIZOVA**.- Chunki tarbiyalanuvchilarimiz orasida ham san'atga mehr qo'ygan bolajonlar juda ko'p. Ular xuddi «Sevinch»nikidek liboslar tiktirib berishimizni iltimos qilyaptilar. Mehrga, e'tiborga tashna bolajonlarimizga bir olam sevinch ulashgani uchun «Sevinch»ga katta rahmat!

Bunday quvonchli damlar, samimiy dil izhorlaridan ruhlanib ketgan guruh rahbari va bastakori ham o'z hayajonlarini yashirmadilar.

-Avvalambor, bizga shunday sharoit yaratib bergan homiylarimiz bo'lmish «O'zmevasabzavotuzum-sanoatxolding», «Ardus», «Hindiston madaniyat markazi» va O'ztelekompaniyasiga, rejissyrimiz Valijon Umarovga, san'at arbobi Shuhrat Abdumalikovga va majmuamizga katta rahmatlar aytamiz. Ularning yordami bilan shunday ajoyib bayramni o'tkazdik. Endigina besh yoshini qarshilagan «Sevinch»imizning yoshiga yosh qo'shilib, bolalarga sevinch ulashib yuraverishiga tilakdoshmiz.

Ularning samimiy tilaklariga biz ham qo'shilamiz.

**Nazokat BOBOQULOVA,**  
O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti  
1 - bosqich talabasi.

## «MO'JIZA» TEATR-STUDIYASINING MO'JIZASI

Sinf. Tanaffus. 14 yanvar - Vatan himoyachilari kuniga atab o'quvchi qizlar sinfdosh o'g'il bolalarga yaxshi kitob hadya etishadi. O'g'il bolalarga esa bu yoqmaydi. Ular «Qadrimiz shunchalik pastmi?», deya kitoblarni qaytarib berishadi. «Endi biz ham 8-martga bitta o'chirg'ichni yigirmataga bo'lib sovg'a qilamiz», deyishadi alam ustida. Biroq, oralarida kitobning qadrini biladigani ham borligi bois, sovg'ani qabul qilishadi. Bahor kelgach, qizlarga sahna ko'rinishi yordamida ajoyib tuhfa hozirlashadi...

Qiziqib qoldingizmi, u holda tomoshani ko'rishga shoshiling.

Komediya janridagi spektakl hozirda ijtimoiy yo'nalishdagi Respublika maxsus gimnaziyasida, keyinchalik qator maktablarda namoyish etiladi.

Respublika o'quvchilar saroyida tashkil etilgan «Mo'jiza» teatr-studiyasi Ijtimoiy yo'nalishdagi Respublika maxsus gimnaziyasida faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur studiya o'zining ilk nishona tomoshasini muxlislar e'tiboriga havola etdi. Gimnaziyaning o'qituvchilar jamoasi hamda o'quvchilari «O'ch» nomli bir pardali komediyani iliq kutib oldilar. Ayniqsa, qizlar fe'latvorini ochib bergan Abror va Quدراتlarning mahoratiga barcha qoyil qoldi. Ularni haqiqiy san'atkorga qiyoslasa bo'ladi. Chunki, aksariyat o'g'il bolalar qiz bola kiyimini kiyishni o'ziga ep

### Nishona

bilmay, or qiladi. Bu yigitlar esa nafaqat kiyib, balki qizlar xarakterini ham ochib berishgan.



Komediyaning muallifi hamda sahnaga qo'yuvchi rejissyori Farhod Fayziyev. Rollarni 5-sinf o'quvchilari ijro etdilar.

Studiyaning kelgusidagi rejalari «Ikkinchi aprel» komediyasi va «Xayrlashuv kechasi», «Qalbingga quloq sol» dramalarini sahnalashtirishdan iborat. Professional teatr artistlari bilan ijodiy uchrashuvlar

o'tkazish ham rejalashtirilgan.

«O'ch» komediyasidagi asosiy rollarni 5-sinf o'quvchilaridan Abror Ahmedov, Quدرات Hamidov, Farruh va Rustam Xasanovlar, Umarxo'ja Rashidxo'jayev, Shahzoda Abduraimova, Nilufar Abzalova, Oliyabonu Islomova, Gavhar Bekmurodova, Sardor Ergashev, Malika Do'stmurodovlar qoyillatib ijro etmoqdalar. Ushbu jamoa kelgusida boshqa maktablarda ham o'z san'atini namoyish etishni rejalashtirgan.

**Muharrama PIRMATOVA.**





# DENNIS BERKAMP

Tug'ilgan joyi: Amsterdam

Tug'ilgan kuni: 1969 yili 10 may

Bo'yi: 183 sm.

Og'irligi: 78 kg.

O'ynagan jamoalari: «Ayaks» (Amsterdam), «Inter» (Milan), «Arsenal» (London).

Sovrinlari va yuksak o'rinlari.



Gollandiya terma jamoasi tarkibida: 1992 yili Yevropa chempionati to'p urari, Fransiyadagi jahon kubogi 4-o'rin sohibi.

«Ayaks» tarkibida: Gollandiya kubogi sohibi (1987, 93), Kubok egalari kubogi g'olibi (1987), Gollandiya chempioni (1990), Gollandiya chempionati to'p urari (1991-Romario bilan birgalikda, 1992-1993), eng yaxshi yosh futbolchi (1990), UYEFA kubogi sohibi (1992), Gollandiyaning eng yaxshi futbolchisi (1992, 1993).

«INTER» tarkibida: UYEFA kubogi sohibi (1994).

XX asr oxirida Fransiyada bo'lib o'tgan Jahon chempionati hech bir futbol muxlisining yodidan chiqmagan bo'lsa kerak. Chorak finalda Gollandiya va Argentina terma jamoalari kuch sinashdi. Gollandiya terma jamoasini muqarrar mag'lubiyatdan Dennis Berkampning ajoyib goli qutqarib qoldi. Berkampning ushbu to'p tufayli Argentina musobaqa bilan xayrlashishga to'g'ri keldi. Yarim finalga chiqqan gollandlar Braziliya terma jamoasi bilan kuch sinashdi. Bu o'yinda asosiy va qo'shimcha vaqt durang (1:1) bilan yakunlandi. Finalchilar to'p tepganda, braziliyaliklar darvozaboni Tafariel o'z mahoratini namoyish etdi. So'nggi zarbani Ronald Bur noaniq bajardi. Finalga Braziliya terma jamoasi yo'l oldi. Baribir Berkamp yilning eng yaxshi o'yinchisi bo'lishga haqli edi. Lekin bu unvon Fransiya terma jamoasining mohir o'yinchisi Zayniddin Zidanga nasib etdi.

Dennis Berkamp o'tmish yulduzlari Yo'xan Kruiff, Marko van Basten, Frank Raykard, Rud Gullit va Ronald Kumanlar safidan muqim joy egalladi.

Dennis tug'ilganda ota-onasi Denis Leuga o'xshasin deb shu ismni qo'yishgan. Berkampning pasportidagi xato tufayli «n» futbol osmonida Denis emas, balki Dennis degan yulduz porlab chiqdi.

Dennis Berkamp «Inter» tarkibida o'ynab yurgan yillari milanliklar bilan kelisha olmadi, chunki «Inter» bilan shartnoma imzolaganda, u samolyotda uchishdan qo'rqishini aytmagani bois klub rahbarlari bilan urushib qoladi. Shundan keyin Berkamp Angliyaga, ya'ni «Arsenal» komandasiga o'tib ketdi.

Dennis Berkamp «Arsenal» tarkibida bir mavsum davomida qatorasiga 4 ta unvon sohibi bo'ldi.

Oybek NIYOZOV,

Toshkent shahridagi 243-maktabning 9-«D» sinf o'quvchisi.



Kelajakka qurmoq bo'lsang poydevor, Bolalar sportiga bergin e'tibor.

“Sog' tanda sog'lom aql” degan iborani barchangiz eshitgansiz. Kimki sport bilan muntazam shug'ullanib

## ENG NAFIS

### SPORT TURI

uning aqli teran, mushaklari chiniqqan, boshqa bolalardan ajralib turishini ham yaxshi bilasiz.

Prezidentimizning sportga katta e'tibor berishlari ham bejiz emas. Maktabingizda o'tkaziladigan «Umid nihollari» musobaqalarining maqsadi ham ana shunga qaratilgan. Jizzaxda,

Xorazmda o'tkazilgan sport olimpiadalarini hammangiz miriqib ko'rgan, ularning ishtirokchilariga havas qilgan bo'lsangiz ham, ajabmas... Sportning turlari juda ko'p, ularga qiziquvchilarning soni undan-da ko'p. Lekin sportning bir turi borki, u bilan hamma ham qiziqvermaydi. Bu eng nozik sport turi bo'lgan badiiy gimnastikadir. Badiiy gimnastika odamni tinchlantiruvchi, xotirjamlik baxsh etuvchi, muhimi, qomatni raso qiluvchi sport turi sanaladi. Lekin uning ham o'ziga yarasha qiyinchiliklari bo'ladi. Siz shunchaki tomosha qilayotgan nozik harakatlar zamirida qanchadan-qancha mashaqqatlar, tinimsiz izlanishlar, mashqlar yotishini tasavvur ham qilolmaysiz.

Badiiy gimnastika bilan asosan qizlar shug'ullanadilar. Ularning nafis

harakatlari kishini hayratga soladi. Buxoro shahridagi ismi jismiga monand qo'yilgan «Nafis» sport majmuida sportning aynan shu turiga qiziqadigan qizlar shug'ullanadilar.

Ular yoshlariga qarab guruhlarga bo'lingan. Eng kichik yoshdagilar 7-8 yoshlidir. Bu yerda tez-tez o'tkazib turiladigan gimnastika bo'yicha musobaqalarda

respublikamizning barcha hududlaridan qizlar qatnashadilar. «Sog'lom avlod uchun» jamg'armasi sovrini uchun o'tkazilgan respublika miqyosidagi musobaqada poytaxtimizdagi Alisher Navoiy nomli Opera va balet teatrida bosh baletmeyster bo'lib ishlagan O'zbekiston xalq artisti, hozirda esa badiiy gimnastika bo'yicha

mamlakat terma jamoasi katta murabbiysi A. Vasiyev qatnashib:

-Bu sport majmuida juda ko'plab musobaqalar o'tkazilishiga aminman va bunday sport majmualarini yanada ko'paytirish tarafdoriman,- dedi hayajonini yashirolmay.

Shuni siquvonarliki,

Buxoroda bu nozik sport turiga rahbarlik qilayotgan Rima Xoxlovadek jonkuyar murabbiylar bor ekan, Ra'no Muhammedova, Alsina Sperkiova, Maxosti Jo'rayeva kabi yosh gimnastikachi qizlarning istiqbollari porloq bo'lishiga ishonamiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA.



Qadimgi Gretsiyaning janubida tabiati go'zal, iqlimi mo'tadil, ertaklardagidek ajoyib bir joy bo'lgan ekan. Bu joy Olimpiya deb nomlanarkan. U yerda ko'plab qasrlar, ko'm-ko'k maydonlar, sportchilar uchun shug'ullanadigan va yashaydigan binolar ko'p ekan. Bu o'lkani qo'lga kiritish maqsadida qo'shni mamlakat podsholari

# NEGA

## OLIMPIYA O'YINLARI

### DEYILADI?

tez-tez hujum uyushtirishar ekan. Bora-bora odamlar urushlardan juda charchashibdi. Shunday paytda qo'shni mamlakat podshosi hujum boshlabdi. Olimpiya o'lkasining podshosi esa urushning oldini olish maqsadida bir taklifni o'rtaga tashlabdi. Bu taklif urush ochgan podshoni ham qiziqtirib qoladi. Qanday taklif ekanligini tezroq bilgingiz kelayotgandir-a? Bo'lmasa eshiting: «Qon to'kishni to'xtataylik, askarlarimizning kuchini urushlarda emas, balki sport musobaqalarida sinab

ko'raylik», debdi. Shunday qilib, ikki o'rtada tinchlik haqida sulh tuzilibdi. Olimpiya degan joy endi sport musobaqalari o'tkaziladigan joyga aylanib qolibdi. Olimpiya o'yinlari paytida urushlar to'xtatilgan, urushayotgan mamlakat sportchilari musobaqalarga hargiz qo'yilmagan. Shuning uchun ham sport tinchlik va ezgulik, do'stlik ramzi hisoblanadi. Yillar o'tib, podsholiklar o'zgargan. Astasekin Olimpiya o'yinlari to'xtab

qolgan. Natijada podsholiklar yana bir-biri bilan urushadigan odat chiqarishgan. Ming yil to'xtab qolgan Olimpiya o'yinlarini 1896 yilda fransiyalik Kiberton degan olim tiklab bergan. Shunday qilib birinchi Olimpiada 1896 yilda Afina shahrida o'tkazilgan. Ma'lumki, habaringiz bor, bu yilgi olimpiyada ham Afina shahrida o'tkaziladi.

## OLIMPIYA HALQASI NEGA BESHTA?

Bolajonlar, Olimpiya halqasi deganda ko'z oldingizga turli rangdagi bir-birlariga chambarchas bog'langan beshta halqa keladi-a? Bu halqalarning nega beshtaligi va rang-barangligi haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Yo'q, deysizmi, unda eshiting: besh halqa yer yuzidagi besh qit'a nomini bildiradi:

Havo rang - Yevropa, sariq rang - Osiyo, qora rang - Afrika, yashil rang - Avstraliya, qizil rang - Amerika qit'asini bildiradi.

### ZAFARLARDAN «SO'ZLOVCHI» MASKAN

Bolalar, agar siz ham sport tarixi va buguni bilan qiziqsangiz, shahrimiz markazida qad rostlagan «Olimpiya shon-shuhrat muzeyi»ga boring, bir olam taassurotlar bilan qaytasiz. 1996 yil 1-sentabrda yurtboshimizga sportni rivojlantirishdagi xizmatlari uchun Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining sobiq Prezidenti Xuan Antonio Samaranch tomonidan topshirilgan «Olimpiya» oltin ordeni muzeyning ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi. Shuningdek, bu yerda ko'plab tengdoshlaringizning sport sohasida erishgan olamshumul g'alabalari, qo'lga kiritgan oltin, kumush, bronza medallari shodasi, kamarlari va turli hajmdagi g'alaba kuboklarini ko'rishingiz mumkin. Bular shunchaki eksponatlar emas, balki har biri bir tarix. Yurtimizdan chiqqan jahon chempionlarining zahmatli mehnatlari samarasi, mevasidir bular. Agar siz yurtimizdan qancha chempion chiqqanligini, ular qachon, qayerda, qanday mukofot egasi bo'lganliklarini bilmoqchi bo'lsangiz, albatta muzeyga tashrif buyuring. Ishonchimiz komilki, dilingiz faxrga to'lgani barobarida, siz ham ulardek mohir sportchilar bo'lingiz kelib qoladi. Shoyad, zafarlardan «so'zlovchi» bu maskan sizni ham zafarlarga chorlasa...

Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi.



Qutog'ingga gapim bor



## UZTOZIMNI

### RANJITIB QO'YDIM

Maktabda o'qib yurgan paytlarimda qilgan bir nojo'ya ishim uchun haligacha vijdonan qiynalib yuraman.

O'qish darsini yomon ko'rardim. Ustozimiz Gulmira opa «O'zbekiston» she'rini yodlab kelishni uyga vazifa qilib bergandilar. Men she'rni yodlamay bordim.

Aksiga olib, ustoz meni doskaga chaqirib qoldilar. «Yodlamadim», dedim o'rnimdan chala turib. «Nega yodlamaysan? Kechgacha o'rtoqlaring bilan gap sotgandirsan-a? O'tir joyingga, bahoying «2», dedilar. Ikki olganimdan ko'ra, o'rtoqlarimning piqillab ustimdan kulganlari alam qilib ketdi. Uyga borib, ota-onamni aldadim. «Gulmira opa meni izza qildilar, urdilar,» - dedim. Ota-onam to'g'ri maktab direktorining xonasiga borishdi. Zudlik bilan direktor huzuriga chaqirtirilgan Gulmira opani ko'rib, teskari burilib oldim. Direktor Gulmira opaga baqira ketdi. O'zini oqlamoqchi bo'lgandi, direktor gapirishga ham qo'ymadi. «Arizangizni yozing, siz ishdan bo'shatildingiz», deya gapni cho'rt kesdi. Gulmira opa xonadan yig'lab chiqib ketdilar. Shu-shu ularni ko'rganim yo'q...

Men bu voqeani bejizgamas, sizga ham saboq bo'lsin, deb zo'ryapman.

*Hayotxon MIRDADAYEVA,  
Farg'ona viloyati, Yaypan shahri.*

## GULNING QADRI YO'QMI?

Ertaga dugonam Nigoraning tug'ilgan kuni. Unga nima sovg'a qilish haqida ko'p o'yladim. Oxiri oyijonim bilan maslahatlashib, chiroyli guldasta sovg'a qilishga ahd qildim. Ertalab uyqudan tursam, oyijonim katta guldasta hozirlab qo'yibdilar. Xursand bo'lib ketdim. Ko'ylagimni kiyib, Nigoralarnikiga yo'l oldim. Uni tabriklab, guldastamni tutqazdim. «Buni sen uchun oyijonim yasab berdilar», deb qo'shib ham qo'ydim.

Tug'ilgan kun juda ajoyib o'tdi. Uyga xush kayfiyat bilan qaytdim.

Ertasi kuni dugonamning uyi yonidan o'tib ketayotgandim. Ne ko'z bilan ko'rayki, oyim yasab bergan guldastam axlat qutisida yotardi...

*Mohira HASANOVA,  
Akmal Ikromov tumanidagi  
81 - maktabning  
5 - «V» sinf o'quvchisi.*



## «QURUQ GAP QULOQQA YOQMAS»,


degan maqolning nechog'li to'g'riligiga yaqinda yana bir bor amin bo'ldim. Avtobusda ketayotgandim. 30 yoshlar chamasidagi bir ayol yo'lovchilarga chipta sotib yurardi. Bir kekxa otaxon: «Qizim, mana shu pulim qolibdi. Qolganini hali ishdan kelayotganimda beraman. Baribir shu avtobusda qaytaman», deya 50 so'm pul uzatdi. Ayolning esa jazavasi tutib, baqira ketdi: «Hey, boboy, pulingiz kam ekan, nega chiqasiz? Siz chollar yomon pismiqlik bo'lasizlar. Pulingizning yo'qligiga hecham ishonmayman. Bo'ling, to'lang yoki avtobusdan tushib keting», deb turib oldi. Bir necha yo'lovchilar otaxonning yonini olib, chiptachi ayolga gapirishdi, nafi bo'lmadi. Otaxon ohista o'rnidan turib, avtobusdan tushib qoldilar... To'g'ri, chiptachi ayol dilozorlik qildi. Lekin men atrofdagi odamlardan ham xafa bo'lib ketdim. Otaxonning yonini olib, haligi ayol bilan urushgandan ko'ra, chipta uchun yetmay qolgan pulni to'lab yuborib, gap bilan emas, amalda mehribonlik qilsalar, shuncha dilxiraliklar bo'lmasmidi?..

*Nigora ESHIMOVA,  
Poytaxtimizdagi arab tiliga ixtisoslashgan  
29 - maktab o'quvchisi.*

## SO'NGGI PUSHAYMON...

Maktabimizda Javlon ismli bir bola o'qirdi. Quyi sinflarda juda odobli, aqlli, bilimga chanqoq bola edi. O'qituvchilar ham uni juda maqtashardi. Yuqori sinflarga o'tgach, Javlon biroz o'zgarib qoldi. Behzod ismli o'yinroq bir bola bilan do'stlashib olib, darslardan qochadigan, maktabga kelsa ham dars tayyorlamay keladigan bo'lib qoldi. Bir kuni buning sababini bilib qoldik. Ma'lum bo'lishicha, uning dadasi kattaroq amalga o'tgan emish. «Javlon, o'g'lim, jon kuydirib o'qimasang ekan, seni o'zing xohlagan ham bo'ladi. Shu amalim bor degan ekan... institutga kirgazib qo'yaman», bazo'r maktabni tamomladi. Oradan yillar o'tib, Javlon yili otasi ham ishdan ketdi. Taqdirning hazilini qarangki, shu o'quv yurtiga topshirgan Javlon Hujjatlarini tavakkal qilib Oliy kelasi yil ham takrorlandi. sinovlardan o'ta olmadi. Bu hol Javlon o'n bir yillik umrini bekorga o'tkazganiga juda achindi. Ammo endi kech bo'lgandi.

«So'nggi pushaymon, o'zingga dushman», deganlari shu bo'lsa kerak-da...  
*Adibabonu ERGASHEVA,  
Toshkentdagi 273 - litsey maktabining 9 - «A» sinf o'quvchisi.*



Men yangi yil bayramini yoqtirmayman. Chunki bu bayram bundan ikki yil avval sinfdoshlarimiz bilan qilgan o'tirishimizda sodir bo'lgan ko'ngilsiz voqealarni yodimga solaveradi...

O'sha kuni eng yaqin do'stimdan ajrab qolganman desam bo'ladi. Nigora ikkimiz oramizdan qil o'tmas qalin dugona edik. Bir mahallada yashaganimiz uchun maktabda ham, ko'chada ham doimo birga yurardik.

Bayram arafasida pul yig'ib, sinfdoshimiz Yulduzning uyida o'tirish qiladigan bo'ldik. Yulduzning ota-onasi esa, pul yig'manglar, dasturxonni o'zimiz bezatib beramiz, deyishibdi. Xursand bo'lib ketdik. O'sha kuni hammamizning kayfiyatimiz a'lo edi. Yulduzning ota-onasi juda ajoyib qilib dasturxon yasatishibdi. Ularning uylari ham juda hashamatli ekan. Uy jihozlarini, xonaning yarmini egallab turgan billur qandillarni, yursangiz oyoqlaringiz botib ketgudek yumshoq gilamlarni ko'rib, og'zimiz ochilib qoldi. «Men Yulduzlarni bunchalik badavlat deb o'ylamagandim», dedi Nigora ohista qulog'imga shivirlab.

O'tirishda miriqib dam olib, uy-uyimizga tarqaldik...

Ertasi kuni maktabga borsam, Nigora hali kelmagan ekan. U bo'lmasa xuddi bir narsamni yo'qotib qo'yayotgandek bo'laveraman, darsda ham o'tirgim kelmay qoladi. Shunday xayollar bilan bo'lib, Nigoraning sinfga kirib kelganini sezmay qolibman. Odati bo'yicha u birinchi bo'lib men bilan o'pishib

## YANGI YILNI YOMON KO'RAMAN...



ko'rishar, keyin boshqalarga navbat kelardi. Bugun esa u to'ppa-to'g'ri Yulduzning yoniga borib, u bilan iliq ko'risha ketdi:

-Yulduz, qalaysan, kecha charchab qolmadingmi? O'ziyam rosa mazza qilib o'tirdik-da, -derdi uning

qo'llarini qo'yvormay. Men bu holni odamiylikka yo'yib qo'ya qolgandim. Afsuski, bu hol ertasiga ham, indiniga ham takrorlana boshladi. Bir kuni sinfga kelsam, mening o'rnimda Yulduz o'tiribdi. Uning tepasida serrayib turishni o'zinga ep bilmay, oxirgi partaga borib o'tirib oldim. Nigora esa bu holning sababini izohlashni ham istamadi. Tanaffusda ham Yulduz bilan yuradigan, oshxonada u bilan birga ovqatlanadigan bo'lib qoldi. Bir kuni uyga qaytayotganimizda Nigoradan nega bunday qilayotganini so'radim. U bo'lsa: «Do'sting kimligini aytasang, sening kimligingni aytib beraman», - degan maqolni eshitganmisan? Hozir odamlar mol-davlatingga qarab muomala qiladigan bo'lib ketishgan. Yulduz bilan yursam, ham moddiy tomondan, ham ma'naviy tomondan yaxshi, tushundingmi?», dedi-da, xayrxo'shni ham nasiya qilib, uyiga kirib ketdi.

Shu-shu yangi yilni yomon ko'rib qolganman.

*Shodiya O'RINOVA,  
Samarqand viloyati,  
Nurota tumani.*

*Sahifani Feruza JALILOVA tayyorladi.*

## VATANIM

*Vatanimning g'unchasi,  
Ochilmoqda gul bo'lib.  
Men uning bulbulchasi,  
Sayrarmen bag'rim to'lib.*

*Vatanim, men sen uchun,  
Aylayin jonim fido.  
Vatan aziz men uchun,  
Bo'layin mayli ado.*

*Vatanimning baxtiga,  
Paxtasi-yu doni bor.  
Tugalmas konlari-yu,  
Kumush-u oltini bor.*

*Onamni qancha suysam,  
Vatanni shuncha suydin.  
Jonimni fido aylab,  
Unga bugun she'r bitdim.*

*Mohima BOBOYEVA,  
Xorazm viloyati,  
Xazorasp tumanidagi  
45-maktabning  
8-sinf o'quvchisi.*



**(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).**

Xullas, sabr qilishga to'g'ri keldi. «Sabr qilsang, g'o'radin halvo pishur», deganlari yana bir bor tajribamda tasdiqlandi: asr nomozi boshlanmasdan, mo'ljalidan ancha avval rafiqamning qiyofasi darvoza ortida gavdalandi. Hademay, qulfnig-shaqur-shuquri eshitildi, quvongancha unga peshvoz chiqdim.

-Ketib qolmang tag'in, deb shoshildim,-dedi u entikkancha ichkari kirarkan. Og'zi quruqshab, yuzlari terdan bo'g'riqqan edi. - Hayriyat, kutibsiz.

-San kelishingni bilardim-da,- dedim kulishga urinib. - O'zi nima gap ekan? Nimaga ketishibdi?

-Qudangizni qon bosimi ko'tarilib ketibdi. Qo'rqib, tez jo'nashibdi.

-Hm... Qudamizning qon bosimi avval ham balandroq edi, tog'da...- dedimu, peshingi manzara ko'z o'ngimda jonlandi: «Kattaroq ilonni ko'rib, qo'rqishgandir balki, sir boy bermay jo'navorishgandir. Shundan qon bosimi oshgan bo'lishi ham hech gap emas». Lekin xayolimdan kechganini Sayyora aytmadim.- Ularni qayerda ko'rding?

-Ko'rganim yo'q. Kelingiz kalitni ishxonamga olib bordi. Javob so'rab, shosha-pisha yo'lga tushdim.

-Xayriyat,- dedimu kalitni olib, eshik qulfini ochdim. Qulfini buzmaganim uchun o'zimdanda xursand bo'ldim...

Kech chog'i, ovqat pishish oldida dala-hovlilar o'rtasidan kesib o'tuvchi g'adir-budir, toshli yo'lda kezilib yurganimda bir guruh hamkasblarimga duch keldim. Poyezddan tushgach, o'zaro suhbatlashib, yayov kelishardi. Bolalar oynomasini boshqaradigan Erkin Malikov uy hayvonlari haqidagi qandaydir hadis haqida so'zlard.

-Bu safar bir kun kechikibsiz-da, Erkin?- kulgancha undan so'radim.

-Shunday bo'lib qoldi,- dedi Erkin xo'rsinib. Shaharga sig'madim, yuragim tars yorilib ketay dediya. To'g'ri oshnamning to'yxonasidan chiqib kelyapman.

Uning orziqish bilan aytgan so'zlarini eshitib, erkalangancha Oqtosh paydo bo'ldiyu Erkinning oyoqlari tagiga yotib, suykandi.

-Oqtosh, zerikmay yotibsanmi?-deya Erkin qo'lidagi

xaltani oyog'iga suyab qo'ydi-da, egilganicha itning boshini siypaladi. - Qorning ochdimi?

Oqtosh negadir menga qaradi. Ajablandim. Chalaroq bo'lsa-da, ovqatlantirganim uchun menga minnatdorchilik bildiryaptimi? Axir undan men ko'proq qarzdor emasmanmi?

-Oqtosh, chop, biznikiga kir, opang ovqat beradi,-deya men ham bu safar jirkamay uning bo'ynidan siypaladim. So'zim tugar-tugamas Oqtosh bizning ochiq turgan

## OQTOSH

(Hikoya)

darvoza tomon yugurdi.

-Gapni tushunganini qarang,- dedi shu orada kimdir.

-Tushunganda qanday!-dedi Erkin qaddini rostlab, sal kerilib. - Ba'zi odamlardan ko'ra ko'proq tushunadi, aqlliroq.

O'rni keldiyu peshingi voqeani hamkasblarimga so'zlab berdim.

-Xudo bir asrabdi-da,- dedi qo'shnilaridan biri. -Is chiqarib yuborsangiz arzirkan.

-Ilonni o'ldirmay to'g'ri qilibsiz,-dedi Erkin o'ylanqirab.- Mening uyimda ham undan bor. Lekin bir-birimizga teginmaymiz.

-Ilonni o'ldirmasa bo'lmas, Erkin aka,-dedi haligi qo'shni. - Birda bo'lmasa birda zahriini solishi mumkin. Keyin kech.

-Birovni ilon chaqib o'ldiribdi, deb eshitmadim. Ari uyasini kovlasangiz, sizga hujum qiladi. Indamasangiz... Mana, xudo asragani shu-da, bu kishiga Oqtoshni yuborgan. Erkin gapni qisqa qilib, xaltani ko'tardi.

-Himoyachi yuborgan Olohgga beadad shukrlar bo'lsin,- dedim men ham darvoza tomon burilarkanman.- Kiringlar, is chiqaramiz.

-Hozir emas-da, mavridi bilan,- Erkin bir necha qadam yurgach, ortiga burilib, tayinladi.- Darvoqe, Oqtoshni bo'ktirmang. To'yxonadan ko'p suyaklar, ichak-chavoqlar olib kelyapman.

**Muhammad SALOM**

Ertasi kuni hali kun chiqmasdanoq Sayyorani mash'um xanday yonida ko'rib, ko'nglim allanechuk bo'lib ketdi. U cho'nqayib o'tirgancha o't-o'lanlarni yular, kuchi yetmaganlariga o'roq ishlatardi. Yoniga yaqinlashib:

-Boshqa ishing yo'qmi?- deb so'radim.

-Nima, bu ish emasmi? Ko'zga xunuk ko'rinish yotibdi.

-Bunga vaqtingni sarflab o'tirma. O'tlarni chopib, xandaqni ko'maman.

-Bu yerni hovuzcha qilamiz, bolalar ham, o'zimiz ham cho'milamiz, devdingiz, fikringizdan qaytdingizmi?

-Keyin qaytadan kovlarmiz. Hozircha...

-Bir ishni ikki ish qilib o'tirasizmi? Qo'ying, tozalab, chiroyli qilib qo'yay,- u shoshgancha o'tlarga o'roq urdi.

-Sayyora...- dedimu ikkilanib, to'xtab qoldim. U anqaygancha menga tikilib, so'radi:

-Biror nima bo'ldimi?

-O'tni yo'qotganing yaxshi, biroq ehtiyot bo'lib, o'tlarni o'roq bilan silkitib-silkitib, keyin o'r, biror nima bo'lsa, qochadi. Qo'l bilan yulma.

-Ilon ko'rdizmi?- Sayyora o'rnidan turdi.

-Ha, kecha bitta kattasi shu yoqqa kirib ketdi.

Sayyora kuldi-da, yana o't-o'lanlar qarshisiga cho'nqaydi:

-Shunga shuncha vahimami? Unaqasidan qanchasini ko'rganman. Sharpani sezsa, qochadi-ketadi-da.

Menga nisbatan uning botirroqligiga ichdan tan berdimu, kechagi voqeani xaspo'shlanmasdan gapirib berdim va:

-Har qalay, ehtiyotkorlik zarar qilmaydi, -deya ta'kidladim.

Sayyoraning rangi bu safar xiyol oqarinqiradi. Birpas jim turdi-da, qo'shni tomonga ishora qilib:

-Shunday joyni tashlandiq qilib, ilonzorga aylantirganiga hayronman,-dedi. - Birovga ijaraga bergandayam sal obod bo'larmidi.

-Shu yildan qoldirmay songa solaman, deyapti egasi.

(Davomi bor.)

**YONG'IN XAVFSIZLIGI OYLI GI**

Lekin bu boradagi ishlar tugagani yo'q. Chunki o'lkamizda qishning ayozli kunlari endi boshlanyapti. Tabiiyki, bunday pallada tabiiy gaz va isitish vositalariga ehtiyoj yanada ko'proq seziladi. Bolajonlarga bir olam zavqu shavq ulashuvchi archa bayramlari ham davom etyapti. Rang-barang chiroqchalar bilan bezatilgan archamizdan, turli mushaklari paqildoqlarimizdan olov chiqib, biror kor-hol yuz bermasligi uchun nihoyatda ehtiyotkor va hushyor bo'lishimiz lozim.

Shu maqsadlarda bizning Obid Sodiqov nomli 249-umumta'lim maktabimizda ham uyushqoqlik bilan o'tkazilgan «Yong'in xavfsizligi oyligi»dagi tadbirlarimiz davom ettirilyapti. Rejasi maktabimizga kiraverishda osib qo'yilgan tadbirlarimizda boshlang'ich sinf kichkintoylaridan tortib 11-sinf

o'quvchilarigacha faol ishtirok etishyapti. Barcha sinflarda «Yong'indan saqlaning» mavzusida devoriy gazetalar

va «Eng yaxshi shiorlar» tanlovi bo'lib o'tdi. Devoriy gazetalar tanlovida 7- «D», 8- «J», 11- «B», 8- «V», 10- «A», 6- «D» hamda 11- «A» sinf o'quvchilari tayyorlagan gazetalar ijobiy baholandi.

Oylik davomida Sobir Rahimov tumani yong'in xavfsizligi bo'limi xodimlari bilan uchrashuvlar, bahs va munozaralar uyushtirildi. Yong'in xavfsizligi boshqarmasi bo'limi xodimi Farhod Najmiddinov bolalarni qiziqirgan savollarga javob berib, shahrimizda bo'lib

**YAKUNLANDI**

turgan yong'inlar va ularning sabablari, ayanchli oqibatlar haqida so'zlab berdilar. Shuningdek, turli pirotexnik portlovchi «o'yinchoqlar»ning

ashaddiy ishqibozlari bo'lmish 5-6-sinf o'quvchilariga bunday o'yinlarni o'ynash oqibatida kelib chiqqan ko'ngilsizliklardan misollar keltirib, ularga tumanda tashkil etilgan yong'in xavfsizligi muzeyiga borishni maslahat berdilar. Biz 6-9

sinfdagi o'quvchilarimizni mazkur muzeyga olib bordik. Muzey xodimi urush faxriysi A.Abidov bizni iliq qarshi oldilar.

O'quvchilarimiz yong'in chiqishining sabablariga oid videofilmni zo'r qiziqish bilan tomosha qilishdi, muzey xonalaridagi eksponatlar bilan tanishishdi. Sinfimiz «Kamalak» bolalar tashkiloti sardori Feruza Zokirova, a'zolaridan Gulruh Nig'matova, Malika Mahkamova, Oybek Ahmadaliyevlar muzeydan katta taassurotlar, Vatanini, xalqini himoya qilayotgan aka-opalariga bir olam havas tuyg'usi bilan qaytishdi.

Shu sayohat sabab, xayolan kim bo'lsam ekan, deya o'ylanib yurgan bolajonlarimiz qalbida bu kasbga mehr uyg'ongan bo'lsa, ne ajab?!

Muqaddam YUSUPOVA,  
Muborak QURBONOVA,  
Poytaxtdagi 249- maktabning  
1- toifali o'qituvchilari.

**«Parvarda yeganmisiz?» tanloviga**

Biz bolalar shirinliklarsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. To'g'ri, bozor rastalarida, savdo do'konlarida turli-tuman shirinliklar qalashib yotibdi. Lekin ular buva va buvilarimiz bolaliklarida yegan shirinliklarning o'rnini bosolmaydi, shunday emasmi? Ana shunday shirinliklar haqida Mapura buvijonim menga quyidagilarni so'zlab berdilar:

-Bolaligimizda shinni, pashmak, nisholda shirinliklarni juda yaxshi ko'rardik. U paytlarda siz sevgan shokoladu konfetlar yo'q edi.

Men ko'proq shinnini yoqtirardim. Uni mazasini totib ko'rsang, dunyoda bundan totli shirinlik yo'q deb o'ylaysan.

O'zi murabboga o'xshash suyuqlik. Yoshligimizda uni «murabboning ukasi» derdik...

-Buvijon, uni tayyorlashni bilasizmi?

-Ha, bolam, bilaman. Yodimda bor, 7-8 yoshli vaqtimizda bobom uzumni katta temir idishga solib, oyoqlarini yaxshilab yuvib, ustiga chiqib bosar edilar. Uzum sharbat bo'lgach, uni o'choqda quyuq holga kelguncha qaynatib turar edilar. Onam bo'lsa shinnini oq tutdan tayyorlardilar, tutni ezib, qizib turgan qozonda quyulguncha aralashtirib turardilar. Urush paytlarida shinni u yoqda tursin, shakar ham bo'lmagan. U paytdagi yagona shirinlik bu-lavlagi edi.

Sizlar sevib iste'mol qiladigan shokoladlar urushdan keyin Moskvada ishlab chiqarila boshlangan ekan...

Buvinning hikoyalarini shu qadar maroq bilan tingladimki, o'zim ham xuddi shinni yegandek bo'ldim.

Maftuna QO'CHQOROVA,  
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi  
179-maktabning 7- «G» sinf o'quvchisi.

Tadbir





Borliqqa qor ko'rasini to'shab, biz orziqib kutgan kumush qish ham kirib keldi. Qish ayniqsa bolajonlarning sevimli fasli. Yil fasllarining o'ziga xos xususiyatlari bo'lgani kabi qishning ham ajoyib tarovati bor. Ayniqsa, qishki ta'tilda issiqqina o'rindan turmasdan, tashqarida qor yog'ishini derazadan tomosha qilishni gashtini aytmaymizmi?

Har safar borliqni oppoq qor qoplaganida o'zim bilan bog'liq bir voqea yodimga tushaveradi. Kulgim qistaydi...

U paytda maktabda o'qiydigan yoshgina qizaloq edim. Qish kunlarining biri, go'yo zamin oppoq choyshabga burkanib olgandek. Sinfdosh qizlarning 3-4 tasi yig'ilib olib, navbatma-navbat bir-birimiznikiga borib, birga dars tayyorlardik. O'sha kuni Saidalarnikida dars tayyorlab, kech qolib ketdik. Kun kech bo'lgan bo'lsa-da, qorning yorug'ida ko'chalar oydin edi. Qizlar bilan kulishib, ko'chalar tutash yo'lga yetib kelganimizni ham bilmay qolibmiz. Qizlar o'z ko'chalariga yo'l olishdi, bizning uygacha hali 2-3 ko'cha bor edi. Nargiza bilan Hilola meni kuzatib qo'ymoqchi bo'lishdi. Unamadim.

-Yorug'-ku, qo'rqmayman, o'zim ketaveraman, dedim va yugurib ketdim. Uyimizga yetishimga 3-4 ta hovli qolganida, qarshimdan ikki bola chiqib, atrofimni o'rab olishdi. Qarasam, sinfdoshlarim Alisher va Suhrob ekan. Ikkalasing ham qo'lida dumaloqlangan qor. Sezdim-ki, ular meni qor bilan «siylashmoqchi». Chalg'itib qochmoqchi bo'ldim, lekin ulgurolmadim. Birpasda «Qorqiz»ga aylantirib qo'yishdi. Shunda ko'nglim g'alati bo'lib, ko'z oldim qorong'ilashib ketdi.

Ko'zimni ochsam, yonimda oyim qo'l-

oyoqlarimni uqalab, isitib o'tiribdilar. Nima bo'ldi, desam, indamadilar. Shu payt eshik qo'ng'irog'i chalindi-yu, oyim birdan o'rinlaridan turdilar. Kim ekan, qiziqish bilan eshikka qaradim. Ostonada haligi

ikki «botir» sinfdoshim xuddi aybdorlardek yelka qisib turishardi. Shunda oyim:

-Ha, sizlarga nima kerak,-dedilar.

-Biz... bizni kechiring, bilmasdan hazillashgandik,-dedi Suhrob.

-Hali sizlarmi qizimni shu ahvolga solgan, agar unga xudo ko'rsatmasin biron kor-hol bo'lsa, nima bo'lardi, o'ylamadinglarmi?

-Boshqa bunday qilmaymiz, o'zi tuzukmi,-dedi Alisher.

Ularning aybdorlarcha bosh egib turganlarini ko'rgan oyim, bola-da, hazillashgandir, deya kechirdilar. Ular ketishgach, bo'lgan voqeani menga aytib berdilar. Qorbo'rondan so'ng hushimdan ketibman. Sinfdoshlarim bo'lsa qo'rqanlaridan orqa-oldilariga qaramasdan ura qochishibdi. Ko'chamizdan o'tib ketayotgan qo'shni amaki meni ko'tarib uyimizga olib kelibdi. Qorbo'ronchilar bo'lsa yarim yo'lgacha yugurishgach, nima bo'ldiykin-a, deya xavotirlanib yana ortiga qaytib, uyimizga kelishibdi.

Ertasi kuni maktabga borsam, darvoza yonida bir to'p yuqori sinf o'quvchilari qor dumaloqlab, darsga kelayotgan qizlarni «siylashayotgan» ekan. Bittasi menga ham otmoqchi bo'lgan edi, yonidagi sherigi, otma, u qiz hushidan ketib qoladi, dedi. Bu gapdan kulishimniyam, xafa bo'lishimniyam bilmay, sinfga kirib ketdim.

Shu voqea sabab, maktabni bitirguncha «qor koptok»larning zarbidan hecham shikast yemadim.

Sadoqat KARIMOVA,  
O'zMU filologiya fakultetining  
II-kurs talabasi.

## HAZILNING ZILI...

### Tengdoshlaring ijodi



### PAND BERGAN QULOQ

Qorni ochgan bir quyon,  
Kelibdi poliz tomon.  
Karamlarni ko'ribdi,  
O'zin unga uribdi.  
Karamlarni rosa yeb,  
Meni hech kim ko'rmas deb.  
Qorni bo'kib qolibdi,  
Biroz mizg'ib olibdi.  
Sakrolmas oyoqlari,  
Pand berdi quloqlari  
Polizchi ko'rib qoldi.  
Tutib, savatga soldi.

Munisa KOMILOVA,  
Toshkentdagi  
14 - maktabning  
3 - «A» sinf o'quvchisi.

## RASMLAR KO'RGAZMASI



Poytaxtimizdagi 283-maktab o'quvchilari Malika KARIMOVA hamda Mardon KARIMOVlarning rasmlaridan ko'rgazma tashkil qildik.

Murodjonga qish fasli juda yoqadi. Ayniqsa, qor gupillab yog'ib tursa. Darslarga ham kirmay, ko'chada o'tgan-ketganga qor otadi. Qizlarni-ku holiga voy bo'ladi.

Mana, hozir ham qo'lida katta-katta qor koptoklarni ushlagancha, qizlar o'tib qolishini poylab turibdi. Huv ana, bir to'da qizlar maktabdan chiqib kelishyapti.

Murodjonning chehrasi

yorishib ketdi. Ularga qarata ketma-ket qor koptoklarini ota boshladi. Shu payt qizlar to'dalanib olishdi. Nimadir bo'lganini payqagan Murodjon juftakni rostlab qoldi...

Ertasiga Murodjon darsga kechikib kirdi. Sababini so'rgan ustoziga:

-Maktabga kelayotsam, bir zo'ravon o'zidan kichiklarga qor otib, bezorilik qilayotgan ekan. Bir qizchaga bor kuchi bilan chunonam qor otdi-da, o'zi qochib qoldi. Adabini berib qo'ymoqchidim, yetolmadim-da. Keyin haligi qizning yoniga bordim. Ishonsangiz, qor uning naq ko'ziga kelib tegibdi.

Ko'zi qizarib, shishib ketibdi. Qo'lidan yetaklab, uyiga olib borib qo'ydim. Shuning uchun biroz kechroq qoldim-da,- debdi.

-Barakalla, juda yaxshi ish qilibsiz, o'tir joyingga,- deya alqab qo'ydi o'qituvchisi...

Shu payt sinf eshigi ochilib, chap ko'zi qizarib, shishib ketgan qizchasini yetaklagan bir ayol kirib keldi. Hamma hayron.

Shunda onasi qiziga qarab:

-Qani, qara-chi, qaysi bola senga qor otgandi?-deb so'radi.

Qizcha ko'rsatgich barmog'i bilan Murodjonga ishora qildi.

-Nima gap, tinchlikmi?-deb so'radi muallim.

-Kecha ko'zimga qor otib qochgan bola shu edi,- dedi qizcha.

Murodjon uyatdan boshini ko'tarolmay qoldi...

Nigora HUSNIDDIN qizi,  
Toshkentdagi Arab tiliga ixtisoslashgan  
29 - maktab o'quvchisi.

### Ustoz ijodi


### SO'QMOQ

Katta yo'lga  
Goh urilib,  
Goh surilib.  
Jarliklarda  
Qadam otib,  
Loyga botib.  
Tepalikka  
Gohi o'rlab,  
Goh burilib,  
Gohi o'lib,  
Goh tirildi,  
Yuqoriga  
Ko'tarildi.




### QO'ZIQORIN

Ko'z-ko'z qilib qalpog'in,  
Daraxtlarga kerildi.  
Kuchli shamol zarbidan,  
Uchib, yerga urildi.



### CHARM TO'PIM

Charm to'pim, charm to'p,  
Senda bormi sharm to'p?  
To'g'ri tepsam, burilding,  
Derazaga urilding.  
Menga tushdi shapaloq,  
O'zing bo'lding yapaloq.



Nasimjon MAMADALIYEV,  
Namangan viloyati, Uychi tumani,  
Birlashgan qishlog'i.



Yangi yil arafasida Olimjonlarning uyiga kelgan uch kishi uy sohibining roziligi bilan hovlidagi archani kesa boshladi. Bolakayning «Archani kesmanglar», deb ularga yalinib-yolvorishlariga parvo ham qilishmasdi. Bolakay ularga qarshilik qilay desa, kuchi yetmasdi. Nima qilarini bilmay, ariq labida o'tirib, archaga arra tortayotgan kishilarga qahru-g'azab bilan tikilib qarardi. Olimjonning ko'ngli ozorlandi. Shu kunga qadar do'stlar orasida archasi borligidan quvonib yuradigan bolakay dardini kimga aytishni bilmasdi. Ular archani kesib ketishdi. Ertasi kuni atayin archani

taqqanligini esladi. Shunda archaga haqiqiy o'yinchoqlar taqishni niyat qilib, otasi tushlik uchun berayotgan pullarini yig'ib yurgandi.

Otabek  
G'OIYIB

Bexosdan uning ko'zi o'qituvchilar orasida turgan maktab direktoriga tushdi. Uch kun ilgari yig'ib yurgan puliga archa o'yinchoqlari, bezaklari sotib oldi. Do'kondan qaytar ekan, xursandligidan tengdoshlariga o'yinchoqlarini ko'z ko'rdi.

Yangi yilga bir kun qoldi, archani bezayman, oldiga esa kattalardan Qorbobo yasaymiz, dedi o'z do'stlariga.

Sindoshlari bilan ayrlashib, hovlilga kirganida, otasi bilan maktab direktori suhbatlashib turishganiga ko'zi tushdi. Shu payt direktor Mamatqul akaning so'zlari qulog'iga chalindi:

-Tog'a, Yangi yil kirishiga uch kun qoldi. Agar rozi bo'lsangiz, shu archani maktabga olib borsak...

-Unga bolalar o'rganib qolishgan. Ilojim yo'q,- dedi otasi.

-Tog'a, yo'q demang, ra'yimni qaytarmang,-deb turib oldi direktor. Bu gapni eshitgan Olimjonning yuragi jizillab ketdi. Garchand gap qaytaradigan odati bo'lmasa ham, bu safar chiday olmadi:

-Archa meniki, bermayman!-dedi-yu, qo'lidagi sumkasini tashlab, archa tomon yugurdi. Yerga tushgan sumkadan archa bezaklari sochilib ketdi. Maktab direktori yerda sochilib yotgan bezaklarga tikilib qoldi...

Mana, bayram ham tugayapti. Olimjon ham ko'plar qatori Qorbobodan sovg'a oldi. O'quvchilar tarqalishdi. Ertasi kuni Olimjon maktabga yetib kelganida, o'quvchilar bezaklarni olish uchun bo'ylari yetmagan shoxlarni ayovsiz sindirardi. Bu holni ko'rib, u yana ezildi...

«Hoy, nima qilayapsizlar, sekinroq olinglar o'sha bezaklarni», deb baqirmoqchi ham bo'ldi. Lekin ovoz chiqarishga majoli yetmadi.

Oyoq osti bo'layotgan archa shoxlariga tikilgan holda ko'zlaridan tinimsiz yosh sizilib chiqardi. Bu holni olisdan maktab direktori zimdan kuzatib turgandi. Olimjonning har bir harakati va archadan ko'zini uza olmayotgani uni avvaliga ajablantirdi.

Shunda Yangi yil bayrami o'tkazilayotgan chog'da ham Olimjon yoddan bilgan she'rni ayta olmaganini, archaga tikilib qolganini esladi. U avvalgi sho'x Olimjonga hech o'xshamaydigan, hozir yuvosh tortgan Olimjonga juda rahmi keldi...

Fevral oyi oxirlarida direktor Mamatqul aka ularning uylariga keldi.

-Olimjon, men senga Yangi yil sovg'asi olib keldim,- dedi-da, unga yosh archa nihollarini tutqazdi.

Olimjon nihollarga tikilib qarar ekan:

-Bu archalarni boshqa kesmaysizmi? -deb so'radi.

-Yo'q, bu archalar seniki, uni hech kim kesmaydi, so'z beraman,- deya boshini silab qo'ydi Mamatqul aka.

## YANGI YIL

## SOVG'ASI

Hikoya

ko'rish ilinjida maktabga bordi. Archani maktab dahliziga o'rnatib, o'qituvchilar


ko'magi bilan yuqori sinf o'quvchilari yasatishmoqda. Olimjon archaga tikilganicha xayol surardi. Uning archasi bezatilmogda. Ertaga hamma bolalar shu archa atrofida xursandchilik qilishadi. Tengdoshlari har galgidek archa oldida she'r o'qiydi, qo'shiq aytishadi. Sahnada o'yin-kulgu bo'ladi. Keyin-chi?.. Archasi keraksiz narsaga aylanib qolishini ham tasavvur qildi.

Ertasi kuni archa atrofini chiroyli kiyingan maktab o'quvchilari o'rab olishgan. Ularning quvonchilari cheksiz. Qorbobo soqolini likillatib, qo'lida hassasi bilan sahnada paydo bo'ldi. Bayram boshlandi. Avval quyi sinf o'quvchilari archa yonida aylanib, she'r, qo'shiqlar aytishdi. Qorbobo va Qorqiz ularga sovg'alar ulashishdi. So'ng, 4-sinf o'quvchilari archa atrofiga kelishdi.

Ular she'r va qo'shiq kuylashardi. Navbat Olimjonga yetdi, lekin u qanchalik harakat qilmasin, ko'ngli yorishmasdi, boshqalardek xursandchilik qila olmasdi. Hatto yoddan bilgan she'rini ham oxirigacha ayta olmadi. Yangi yil bazmi unga quvonch baxsh etmadi. Aksincha, orzu-umidlari puchga chiqqan edi, go'yo...

Qish. Borliqni oppoq qor qoplagan. Bolakaylar dala-shiyponi yonida yaxmalak uchib yurishardi. Olimjon ham ular bilan birga tushgacha o'ynab, so'ngra maktabga borardi. Bu safar ham o'ynab bo'lgach, ustini shalabbo, ho'l qilib qaytdi. Odatiga ko'ra hovli o'rtasidagi archasiga yaqinlashdi-da, igna barglarini siypaladi. Har yili archa shoxlariga rang-barang qog'ozlardan yasalgan o'yinchoqlarni osardi...

U Yangi yil bazmida archaga tikilib turarkan, shularni esladi. Davrada turgan opasini ko'rib, o'tgan yili u bilan archa bezatishganda o'yinchoqlar o'rniga sabzi, kartoshka va piyoz



## «AYIQPOLVON» KROSSVORDI



1. Yirtqich va mushuksimon hayvon. 2. Eng bo'yi uzun hayvon. 3. Hayvonlar shohi. 4. Bolasini xaltada ko'tarib yuradigan jonivor. 5. Yirtqich qush. 6. Shimpanze, orangutan... 7. «Simba»da Skarning do'stlari. 8. Tulkning do'sti.

Tuzuvchi:

Gulnoza QURBONOVA.



Archajonim, archajon,  
Yaproqlaringda marjon.

Uy to'rida bezanib,

Turishlaring bir jahon.

Ayoz bobo qayrar tish,

Qo'rqitilmas seni qish.

Qabul aylagin bugun,

Bolajonlardan olqish.

Atrofingda o'ynaymiz,

Qo'shiq aytib kuylaymiz.

Qorbobo va Qorqizdan,

Sovg'a olib quvnaymiz.

Nigora RAVSHANOVA,

Toshkent viloyati,

Chirchiq shahridagi

2 - ixtisoslashgan maktabning

5. «B» sinf o'quvchisi.

### O'tganlarning oxirati obod bo'lsin!

«Tong yulduzi» gazetasi jamoasi gazeta muxbiri Salimjon Inomzodaga padari buzrukvori

Inomjon ota AZMATOVning

vafot etganligi munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradilar.

«O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi»

BOSH MUHARRIR:  
Umida  
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Risboy JO'RAYEV,

Mirakmal MIROLIMOV,

Botir UBAYDULLAEV,

Jabbor RAZZOQOV

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir

o'rinbosari)

Po'lat MO'MIN,

Abdusaid KO'CHIMOV,

O'ktam OHUNOV,

Ergashvoy SARIQOV.

Noshir

«Ijod dunyosi»

nashriyot uyi.

Gazeta

«Ijod dunyosi»

nashriyot uyi

kompyuter bo'limida

terib sahilandi.

Hajmi A-3, 2 bosma

taboq.

«O'zbekiston»

nashriyoti matbaa

bazasida chop etildi.

Adadi - 41674

Buyurtma № Г-04-1

Korxonalar manzili:

700129,

Toshkent,

Navoiy ko'chasi, 30.

Gazetani

Otabek

ESHCHANOV

sahifaladi.

NAVATCHI:

Ozoda

TURSUNBOYEVA

Bizning elektron

pochtamiz:

ijod@uzpak.uz

Ro'yxatdan o'tish

tartibi № 000137

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi,

30-uy.

Fel: 144-63-08

144-62-34

Tel./ faks:

(99871) 144-37-24